

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA  
O'YINCHOQLARNING O'RNI**

***Teshabayeva Zamira Sobirovna***

*Qo'qon universiteti "Talim" kafedrasi dotsenti, p,ff,d, (PhD)*

***Toshmatova Farog'at Foziljonovna***

*Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrasi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-  
bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyanaluvchilarda o'yinchoqlarni o'rni va psixologik ta'siri haqida so'z boradi. Bolalar tasavvurining rivojlanishida zamonaviy o'yinchoqlar va milliy o'yinchoqlarning o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** bola, psixologiya, faoliyat, zamonaviy o'yinchoqlar, milliy o'yinchoqlar, tasavvur, rivojlanish, qiziqish.

O'yin - bu dunyoni anglashning dastlabki bosqichi hisoblanadi. O'yin boshqa faoliyatlarga qaraganda bola uchun oson va tushunarli bo'lgan faoliyatdir.

O'yinchoqlar bolalar o'yinlari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan foydalanish bolalar bilim doirasini kengaytirishga, atrofga qiziqish uyg'otishga, mustaqil rivojlanishiga ko'maklashadi. Bolaligidan o'yinchoq o'ynagan va o'ynamagan bolalarda tafakkur qilish keskin farq qiladi. O'yinchoqlar bilan oshno bo'lgan bola do'st toppish va yon atrofdagi insonlar bilan kelishishda qiyalmaydi fiklash doirasi keng bo'ladi.

Haqiqiy va xayoliy narsalar, tasvirlar, o'yinchoqlar bolaning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyasi maqsadlariga xizmat qiladi, unga atrofdagi dunyoni bilishga yordam beradi, uni maqsadli, mazmunli faoliyatga o'rgatadi va fikrlashni

rivojlantirishga hissa qo'shamdi; [xotira](#), [nutq](#), his-tuyg'ular. O'yinchoq bolalar bilan o'quv ishlarida, xususan, [texnik](#) va badiiy ijodni rivojlantirish uchun keng q'llaniladi. O'yinchoqlarning turlari, xarakteri, mazmuni va dizayni bolalarning yoshiga qarab, ularning rivojlanishi va qiziqishlarini hisobga olgan holda aniq ta'lim vazifalari bilan belgilanadi. San'at va hunarmandchilik asarlari sifatida o'yinchoqlar, ayniqsa milliy-an'anaviy narsalar zamonaviy interyerda bezak elementlari sifatida ishlataladi. O'yinchoqlarning mazmuni va shakllari jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning madaniyati darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

### **Shuningdek o'yinchoqlarga quyidagi 3ta talab qo'yiladi:**

*badiiy; gigiyenik; pedagogik.* Ushbu talablar bolaga o'yinchoq berishdan avval hech qaysi ota-onada hamda tarbiyachining yodidan ko'tarilmasligi zarur.

O'yinchoqlar bilan ko'p o'ynaydigan bolalar jismonan sog'lom aqliy tomondan esa barkamol bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalalarga o'yinchoq berishdan oldin uning tozaligiga, bola yoshiga mosligiga va gigeyenik tomondan barcha talablarga mos keladigan o'yinchoqni tanlash zarur. O'yinchoqlar bola ta'savvurida shakllanishi, uni fikrlashga undashi uchun muhim sanaladi. Lekin ayrimlari bolaning ruhiy holatiga ta'sir qilib, atrofdagi olam haqida noto'g'ri tushunchaga ega bo'lishi va hatto zo'ravon bo'lib qolishiga ham sababchi bo'ladi.

**Zamonaviy o'yinchoqlar:** maxluqlar va agressiv qahramonlar va o'yinchoqlarning xilma-xilligi orasida rivojlanioshiga yordam berishning o'rniga, psixikasining vayron bo'lishiga olib keladigan o'yinchoqlardir, bunday o'yinchoqlar bolada (ayniqsa, haddan ortiq faol bo'lsa) agressivlikni uyg'otadi, vazmin bolalar esa o'z qobig'iga o'ralib olishi mumkin. O'yinchoq nafaqat bolaning o'zini tutishi o'zgartirishga, balki tunda qo'rinchili tushlar ko'rishiga ham olib keladi.

Milliy qadiryatga muhabbat eng avvalo oiladan boshlanadi. Oilada farzand uchun milliylik aks etgan qo'g'irchoqlar bola tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi. Haqiqiy va xayoliy narsalar, tasavvurlardan milliy o'yinchoqlar bolaning aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyasi maqsadlariga xizmat qiladi va o'zimizning

asl qadryatlarga xos bo'lgan o'yinchog'u qo'g'irchoqlar bu borada muammolarga to'la yechim bo'la olishini esa unutmagan ma'qul.

Bu borada birinchi yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: "Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa\_daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar uy hayvonlari bo'ladimi\_bularning barchasi dunyonni o'zi uchun kashf qiladi".

Xulosa o'mnida shuni ta'kidlash joizki, o'yinchoqlar bolaning aqliy, jismoniy va estetik rivojlanishida ajralmas qisimdir. O'yinchoqlar bolada nafaqat hayotni anglashiga balki ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi bunda avvalo kattalardan alohida e'tibor talab qilinadi chunki bolaning kelajagi, dunyoqarashi milliy qadiriyatlarga bo'lgan hurmat, yurtni, oilasini sevishi bu bolaligidan bo'lgan tarbiyaga, bolalikning boshi va asosi o'yin va o'yinchoqlarga bog'liqdir.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2013
2. Teshabayeva Z.S."Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rnatish" Darslik T: Malik Print Co. 2021 y
- 3.Bolalar bog'chasi uchun o'yinchoq va qo'llanmalar. Irgasheva.V.M .Ma'rifat -1987.
4. A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66
- 5.Алтибаева, Г. М. (2016). Инновационная деятельность в детских дошкольных учреждениях. Вестник современной науки, (6-2), 15-18.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%O'yinchoq>